

# COLLECTION

Innovation, integration and modern  
problems in the scientific activities of young  
researchers and students: theory and  
practice

www.d-pressa.com

31  
MARCH



Jizzakh, Uzbekistan

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF  
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN  
NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

SCIENTIFIC JOURNAL OF SCIENCE TECHNOLOGY & DIGITAL FINANCE  
JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENCE NETWORKS

Innovation, integration and modern problems in the scientific activities of young  
researchers and students: theory and practice collection of materials of the  
international scientific and practical conference on the topic

(March 31, 2026)

Jizzakh-2026

**Innovation, integration and modern problems in the scientific activities of young researchers and students: theory and practice** – Jizzakh: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, March 31, 2026, 790 pp.

**Editors in charge:** Ass.prof. Soy M.P.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

## SOTSILOGIYADA SOTSIOLOGIK TADQIQOT METODLARDAN FOYDALANISH

**Xakimov Orziqul Meliyevich**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali O'zbek  
tili va ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, sots.f.n.*

**Narzullaeva Gavhar**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali talabasi  
e-mail: [hakimovorzikul333@gmail.com](mailto:hakimovorzikul333@gmail.com)*

---

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada. Sotsiologik tadqiqotlar bo'lajak izlanishlarining ilmiy asoslangan reja va dasturini tayyorlashdan boshlanadi. Dastur hayot haqiqatidan kelib chiqqan va ilmiy-nazariy jihatidan puxta ishlangan bo'lishi lozim. Zero, tadqiqot natijalari qanday bo'lishi ana shu omillarga bevosita bog'liqdir. Dastur bo'lajak tadqiqot materiallarini to'plash, qayta ishlash va ma'lumotlarni tahlil qilishni o'z o'ziga oladi. Dastur tadqiq etiluvchi ijtimoiy muammo mohiyatini aniqlash, tadqiqot ob'yekti va predmetini belgilash, maqsad va vazifalarni xarakterlab berish, ishning, ilmiy tahlinini belgilash, usullarini aniqlash, ma'lumotlarni to'plash va tahlil etish sxemasini chizib olish kabi qismlarni o'zida mujassamlashtiradi.

**Kalit so'zlar:** Dastur, sotsiologik tadqiqot, hujjat, panel, ijtimoiy muammo, uslub, Kogorta, pilotaj-tajriba o'tkazish, faktlar, intervyu, respondent, suhbat, anketa, so'rov, ekspert, statistika, tanlov, empirik, gipoteza, kuzatish usuli, matematik modellashtirish, prognoz.

Bugungi dunyo qanchalik shiddat bilan o'zgarib borayotganligini barchamiz kuzatib guvohi bo'lmoqdamiz. Shuning uchun o'zgarishlarga o'z vaqtida to'g'ri moslashish, va to'g'ri harakat hamda munosabatda bo'lishni hayotning o'zi talab qilmoqda. Globallashuv butun dunyoda jadal suratlarda davom etar ekan mamlakatlarga insonlarga turli hil salbiy ta'sirlarni ko'rsatmay qolmasligi aniq. Sababi, globallashuv insoniyat oldiga turli hildagi nizoli muammolarni paydo qilishda davom etar ekan zamonaviy sotsiologiya ham ushbu chigal muammolarni o'rganishda, ularni hal qilish yo'llarini izlab topishda davom etishi lozim. Binobarin Sotsiologiya fani kecha yoki yaqinda paydo bo'lgan fan emas tarixan rivojlanib takomillashib borayotgan fanlar qatoriga kirmoqda. Fan sifatida XIX-asrda paydo bo'lgan bo'lsada lekin sotsiologik dunyoqarashlar antik davrga borib taqaladi. Sotsiologiya XIX – asrning 30-yillarida vujudga kelib turli hil davrlarda bosqichma bosqich rivojlanib kelmoqda. Zamonaviy sotsiologiya bugun mamlakat va jamiyatlardan dunyoda yuzaga kelayotgan yangi - yangi global muammolarni o'rganishni va ushbu muammolarni bartaraf etishning yo'llarini izlashni talab qilmoqda. Aynan bugungi kun zamonaviy sotsiologiya butun dunyoda rivojlanib va taraqqiy etib bormoqda. Rus amerika sotsiologi Pitirim Sorokin ta'kidlaganidek

“insoniyat XXI asrda sotsial muammolar girdobi bilan to‘qnash keladi”. Zamonaviy jamiyatda nega “oilalarda ajralishlar sodir bo‘ladi?”, “ishsizlikni qay yo‘sinda bartaraf qilish mumkin?”, “diniy va milliy nizolarning sababi nimada?”, “insonlarning xulq atvorini boshqarish mumkinmi?” qabilidagi o‘nlab va balki yuzlab sotsial masalalar o‘z yechimini topilishini kutib yotadi.

Mamlakatimizda sotsiologiyaga berilayotgan e‘tibor hukumat darajasiga chiqib, uning jamiyat hayotida muhim o‘rin tutishi e‘tirof qilindi. Mamlakatimizda sotsiologiyaga berilayotgan e‘tibor hukumat darajasiga chiqib, uning jamiyat hayotida muhim o‘rin tutishi e‘tirof qilindi. 2019- yilning 22-fevralida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5667-son Farmonining qabul qilinishi — sohaning yurtimizda vujudga kelish tarixi, bosib o‘tilgan yo‘l, bugungi holat va istiqbol masalalarini o‘zida qamrab oladi.[1].

Tadqiqotning maqsad va vazifasi. Dasturning ushbu qismida sotsiologik tadqiqot buyurtmachi va bajaruvchilar o‘rtasidagi munosabat o‘zaro kelishib olinadi. Tadqiqot uchun sarf qilinadigan xarajatlar: moliyaviy mehnat resurslari hisoblab chiqiladi. Sotsiologik tadqiqot maqsadi turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, muayyan ishlab chiqarish korxonasida mehnat unumdorligini ko‘tarish muammosini sotsiologik tadqiqot qilish zarur bo‘lsa, bunda asosiy maqsad mehnat unumdorligi pastligining asosiy sabablarini aniqlash, mavjud yashirin iqtisodiy imkoniyatlarni qidirib topish va mavjud shart-sharoitni o‘zgartirishdan iborat.

Tadqiqot ob'yekti va predmeti. Tadqiqot predmeti mavjud sotsiologik muammoning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Bir xil muammoli holatda yagona empirik tadqiqot ob'yekti bo‘yicha tadqiqot predmeti bo‘ladigan bir necha yo‘nalishlar bo‘lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, tadqiqot predmeti shakllanganda, mavjud muammoni yechish yo‘llari bo‘yicha ilmiy faraz tuziladi, shu bilan birga, sotsiologik tadqiqot o‘tkazish usullari va shakllariga ta’rif beriladi.

Sotsiologik tadqiqot ob'yekti deganda, sotsiologik yo‘naltirilgan ijtimoiy hodisa, jarayon va tuzilmalar tushuniladi. Har qanday sotsiologik tadqiqot ob'yekti tizimli xususiyatiga, asosan vaqt, makoniy imkoniyat va miqdoriy o‘lchov chegarasiga ega bo‘ladi.

Ilmiy muammo ob'yektini sistemali tahlil etish tadqiqotchi uchun 3 faoliyat yo‘nalishini ochib beradi. Ular:

- 1) Tadqiqot predmetini aniqlab olish.
- 2) Asosiy tushunchalarni ajratib olish va ularga izoh berish.
- 3) Tadqiqot uchun ish gepotezasini yaratishdir.

Dasturda aniq ko‘rsatilishi zarur

- 1) Empirik tadqiqot ob'yekti.
- 2) Sotsiologik tadqiqot ob'yektini to‘laligicha qamraydimi yoki uning ayrim jihatlarini tanlab oladimi.

3) Tanlov asosida olib boriladigan sotsiologik tadqiqot asosi (ro‘yxat tuzish, kartoteka, sotsiologik xarita kabilar).

Sotsiologik tadqiqot usullari ichida hozirgi kunda eng keng tarqalgani so'rov usulidir. So'rov usulining qulayligi shunda namoyon bo'ladiki, tadqiqotning kuzatish va eksperiment usullarini faqat mutaxassis sotsiologlar qo'llashi mumkin bo'lsa, so'rov usulida tadqiqot o'tkazishga qisqa muddatli tayyorgarlikdan o'tgan yordamchilarni ham jalb qilish va ular yordamida respondentlarning katta miqdorini qamrab olish mumkin.

So'rov usuli boshqarish uchun qulay usuldir. Bundan tashqari, tadqiqot ko'lamini kengaytirishda so'rov usulining imkoniyatlari juda katta.

Bu usul qo'llanilganda katta korxonalar va muassasalar, sohalar, mintaqalar va hatto, mamlakat miqyosida ham tadqiqot o'tkazish mumkin.

Kuzatish usuli faqat hozirgi davrda yuz berayotgan hodisalar haqida ma'lumot bersa, so'rov usuli respondentga bevosita murojaat qilib, uning xulq-atvori, harakatdan ko'zlagan niyatlari o'tgan davrda qilgan va hozir qilayotgan ishlari, kelajakka mo'ljallangan rejalari to'qrisida batafsil ma'lumot olish imkonini beradi. Ayniqsa, kishining his-tuyqulari, kechinmalari, harakat motivlari to'g'risida ma'lumot to'plash kerak bo'lganda, bu usul qo'l keladi. Chunki bu hodisalar kuzatuvchi nigohidan yashirin bo'lib, ularni kuzatish usuli bilan aniqlab bo'lmaydi.

Intervyu usuli anketa bilan ko'p umumiyliklarga ega. Anketada savollar yozma tarzda berilsa, intervyuda oqzaki savollar beriladi. Intervyu respondent bilan bevosita muloqotni taqozo qiladi. Intervyuni o'tkazuvchi - intervyuyer shaxsiyati, o'zini tutishi, ovozi, tashqi ko'rinishi va kiyinishi ham so'rov natijalariga ta'sir qilishi mumkin. Intervyu o'z mohiyatga ko'ra tadqiqotchi bilan respondentning suhbatini, lekin bu suhbatni har kuni choyxonada yoki bekorchilikdan qilinayotgan suhbat bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Choyxonadagi yoki bekorchilikdan o'tkazilayotgan suhbatdan asosiy maqsad vaqt o'tkazish bo'lsa, intervyu muayyan ma'lumot to'plashni nazarda tutadi. Shu bilan birga, intervyuning oddiy suhbatdan farqi yana shundaki, suhbatdoshlar bir-birlarini qiziqtirgan masalalar to'qrisida gap yuritisa, intervyu jarayonida faqat bir tomon - tadqiqotchi savol va respondent javob beradi.[2].

Demak, metod – bu bilishda kerakli natijalarga erishish vositasidir. Har bir metod o'zida bilib olingan qonuniyatlar, xususiyatlar va aloqalarni mujassamlashtirgan bo'lib, ular uning ob'ektiv tomonini tashkil qiladilar. Ular asosida shakllangan usul, vosita va qoidalar sub'ektiv tomon deyiladi.

Tomonlarni ob'ektiv va sub'ektivlikka ajratish metodning mohiyati va strukturasi tushunish uchun juda muhimdir. Ob'ektiv tomon shunday nazariy asoslarni o'zida ifoda etadiki, ular fan tomonidan hozirda ishlab chiqilgan. Shuningdek, ob'ektiv tomon bu – yana tadqiqotning ma'lumot darajasi, dunyoqarashi bo'lib, ular individual-shaxsiy alohidalik bilan ham bog'liqdir. Umumilmiy tadqiqot metodlari falsafa bilan maxsus fanlarning fundamental nazariy-metodologik qoidalari o'rtasida o'ziga xos «oraliq metodologiya» bo'lib xizmat qiladi. Umumilmiy tushunchalar qatoriga ko'pincha «axborot», «model», «tuzilma», «funksiya», «tizim», «element», «oqilonalik», «ehtimollik» singari tushunchalar kiritiladi.

Xususiy ilmiy tadqiqot metodlari — materiya harakatining asosiy shakliga mos bo'lgan muayyan fanda qo'llaniladigan bilish usullari, tamoyillari, tadqiqot usullari va tartib-taomillari majmui. Mexanika, fizika, kimyo, biologiya va ijtimoiy-gumanitar fanlarning metodlari shular jumlasidandir. Xususiy fanlar metodlarining o'ziga xos xususiyatlari moddiy ifodasini topgan bilish vositalari: mikrofizikada zarralarni tezlatgichlar, tibbiyotda a'zolar faoliyatini qayd etuvchi turli o'lchagichlar va shu kabilar hozirgi zamon metodologik tadqiqotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Aksiomatik metod – ilmiy nazariya tuzish usuli. Bunda uning asosiga ayrim dastlabki qoidalar – aksiomalar qo'yiladi va nazariyaning qolgan barcha g'oyalari mana shu aksiomalardan sof mantiqiy yo'l bilan isbotlash orqali keltirib chiqariladi. Aksiomalardan teoremlarni (umuman, bir formuladan boshqa formulalarni) keltirib chiqarish uchun maxsus qoidalar ta'riflanadi. Binobarin, aksiomatik metodda isbotlash–har biri yo aksioma bo'lgan, yo oldingi formulalardan ma'lum qoidaga binoan keltirib chiqariladigan formulalarning ma'lum ketma-ketligi. Aksiomatik metod – olingan ilmiy bilimni tizimga solish usullaridan biri. Uning amalda qo'llanishi cheklangan, chunki uni faqat aksiomalashtirilgan mazmun nazariyasining rivojlanish darajasi juda katta bo'lgan holdagina qo'llash mumkin. Mashhur fransuz fizigi Lui de Broylning ta'biri bilan aytganla, «aksiomatik metod tasniflash yoki ta'lim berishning yaxshi metodi bo'lishi mumkin, ammo, u kashf etish metodi bo'la olmaydi».

Gipotetik-deduktiv metod – bir-biri bilan deduktiv bog'liq bo'lgan gipotezalar tizimini yaratishni nazarda tutadi. Mazkur gipotezalardan pirovard natijada empirik faktlar to'g'risida xulosalar chiqariladi. Ushbu metod gipotezalardan va haqiqiy ma'nosi ma'lum bo'lmagan boshqa farazlardan xulosalar chiqarishga (deduksiyaga) asoslanadi. Binobarin, mazkur metod yordamida chiqarilgan xulosa muqarrar tarzda ehtimoliy xususiyatga ega bo'ladi.

Matematik gipotezani gipotetik-deduktiv metodning turi deb hisoblash mumkin. Bu erda ilgari ma'lum bo'lgan va tekshirilgan holatlarning takomillashtirilgan ko'rinishlarini ifoda etuvchi ma'lum tenglamalar gipoteza vazifasini bajaradi. Ilgari ma'lum bo'lgan va tekshirilgan holatlar o'zgartirilib, yangi hodisalarga taalluqli bo'lgan gipotezani ifodalovchi yangi tenglama tuziladi. Gipotetik-deduktiv metod (aksiomatik metod singari) kashf etish metodidan ham kura ko'proq ilmiy bilimni tuzish va asoslash metodi hisoblanadi, chunki u yangi gipotezaga qanday yo'l bilan kelish mumkinligini ko'rsatadi.[3].

Induksiya – ayrimlik (tajriba, fakt)dan umumiyga (ularni umumlashtirib, xulosa chiqarishga) fikran harakat qilish;

Deduksiya – bilish jarayonining umumiydan ayrimlikka yuksalishi. Induksiya va deduksiya o'zaro bog'lanadi hamda bir-birini to'ldiradi. Tajriba hamisha cheksiz va nomukammal bo'lganligi uchun induktiv xulosalar doim muammoli (ehtimoliy) xususiyatga egadir. Induktiv umumlashtirishlarga, odatda, tajribada bilingan haqiqatlar (empirik qonunlar), deb qaraladi.

Induktiv umumlashtirish turlaridan ommaviy induksiya, to'liqsiz induksiya, to'liq induksiya, ilmiy induksiya va matematik induksiya ajratiladi. Mantiqla

sababiy aloqalarni aniqlashning induktiv metodlari – induksiya qonunlari (Bekon-Mill induktiv tadqiqot qoidalari) farqlanadi. Yagona o‘xshashlik, yagona tafovut, o‘xshashlik va tafovut, bog‘liq o‘zgarishlar metodlari va qoldiqlar metodi shular jumlasidandir. Deduksiyaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, tadqiqotchi deduksiya vositasida bir sinf, bir jins, bir guruh narsa yoki hodisa to‘g‘risidagi umumiy bilimlardan ularning har biri haqida alohida bilimlarni hosil qiladi. Insonning bilish tajribasidan shu narsa ma‘lumki, agar biron xususiyat bir toifa yoki bir jinsdagi hamma narsa yoki hodisalarga xos bo‘lsa, bu xususiyat shu toifa yoki jinsga oid har bir narsa yoki qodisaga ham xos bo‘ladi.[4].

Neopozitivizmning eng muhim xizmatlaridan biri – bu eksperiment kuzatish, hujjatlarni o‘rganish va so‘rov metodlarini ishlab chiqish bo‘ldi. Sotsiologik tadqiqotlarning amaliyoti empirik metodlarni bilish imkoniyatlarini yuzaga chiqardi. Shu bilan birgalikda makro va mikro sotsiologiyalar shakllana boshladilar, ya‘ni jamiyat hayotining tahlil qiluvchi bilimlarning turli darajalari vujudga keldilar. Ushbu darajalarni munosabatlarini muvofiqlashtirish, turli xil empirik tadqiqotlar natijalarini umumsotsiologik bilimlarga bog‘lash muammolari kelib chiqdi. Bu hamma muammolarni struktur funksionalizm hal qilishga harakat qiladi.

**Xulosa:** sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazish orqali talabalar, mutasaddi mutaxassislar hamda keng jamoatchilik ommasi sotsiologik axborotlar tizimini yaratishda katta imkoniyatlarga ega bo‘ladilar. Sotsiologik tadqiqotlar jamiyatning turli sohalari faoliyatini mo‘tadil rivojlantirishda katta ahamiyatga egadir. Buni amalga oshirishda sotsiologiya fanining imkoniyatlaridan to‘la foydalanish maqsadga muvofiqdir. Empirik tadqiqotlar tajribasidan har xil sohadagi va kasbdagi xodimlar ham o‘z ishlarida keng foydalanishlari mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Xalq so‘zi gazetasi 2019 yil 23 fevral O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni Sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishni davlat tomonidan qo‘llab- quvvatlash chora tadbirlari to‘g‘risida 1-2. betlar.
2. G.Jiyanmuratova Sotsiologiya tarixi fani bo‘yicha o‘quv uslubiy majmua Toshkent 2020
3. Kalonov K.K., Sodiqov A.K., Qurlbomaliyeva ELL, Asimboyeva B. Sotsiologiya O‘quv qo‘llanma Toshkent 2020.
4. Hakimov O., Mulholland J. FUQAROLIK JAMIYATINI BARPO ETISHDA JAMOATCHILIK FIKRINING O‘RNI //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 458-464.
5. Xakimov O., Subhiddinov S. YOSHLAR MADANIYATINI OSHIRISHDA TA‘LIM TARBIYA JARAYONI //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 473-476.
6. Xakimov O., Jabborova G. JAMIYATDA GENDER STEREOTIPLARI //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 149-154.
7. Xakimov O., Gurgiboyev O. NOGIRONLAR BILAN ITIMOIIY ISH OLIB BORISH TEXNOLOGIYASI //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 125-129.

8. Kamolov D. ETHICS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE: EXPLORING THE MORAL AND SOCIAL IMPLICATIONS OF AI IN CONTEMPORARY SOCIETY //SGS-Engineering & Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 02.
9. Kamolov D. R. O. G. L. O'zbekistonda demokratiya va axloqning zamonaviy muammolari va yechimlari //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. NUU Conference 2. – С. 348-352.
10. Kamolov D. GLOBALIZATION PHENOMENON AND GLOBALISM //Journal of Contemporary World Studies. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 4-9.
11. Kamolov D., Ismoilova D. RAQAMLASHTIRISHNING O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 301-306.
12. Kamolov D. VIRTUAL TURIZM (VR) XIZMATLARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI //Scientific practical conference. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 372-374.
13. Цой М., Камолов Д. ЗНАЧЕНИЕ И РОЛЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ЭКОНОМИКЕ: МИРОВОЙ ОПЫТ И ПРАКТИКА УЗБЕКИСТАНА //Academic literature. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 1-105.
14. Kamolov D. Athenian democracy: individual and collective freedom //Semantic Scholar. – 2021.
15. Kamolov D. Davlat boshqaruviga oid axloqiy qarashlar //Адабиёт учкунлари. – 2021.
16. Kamolov D. ON THE WAY TO THE DIGITAL EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN. – 2023.
17. Kamolov D., Asrayev S. STATE POLICY FOR THE DEVELOPMENT OF COMPETITION IN UZBEKISTAN //Science technology&Digital Finance. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 353-361.
18. Dostonbek K. SPIRITUAL AND MORAL ENVIRONMENT OF SOCIETY //Social science and innovation. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 128-133.
19. Kamolov D., Ismoilova D. THE IMPACT OF DIGITALIZATION ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN //Science technology&Digital Finance. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 301-306.
20. Kamolov D. JIZZAX VILOYATIDA TURIZM KLASTERI RIVOJLANISHINING HUDUDNING IJTIMOY-IQTISODIY SALOHİYATIGA TA'SIRINI VAHOLASH: STRATEGIK YONDASHUV VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI //Scientific practical conference. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 48-52.
21. Khudoyarov R., Kamolov D., Azamatov B. Economic growth, business circulation and economic development //Science technology&Digital finance. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 21-24.
22. Цой М. П., Эшонкулов Т., Касимова Д. П. Реформы в сфере образования Республики Узбекистан //Гуманитарные науки в XXI веке. – 2014. – №. 18. – С. 210-213.